

3-TOM, 3 - SON
HOMILADORLIKDAGI PIELONEFRIT FONIDA TUG'ILGAN
CHAQALOQLAR TIMUSINING MORFOLOGIYASI

Eshqobilov Ozodbek Abdisodiq o'g'li

TTA Termiz filiali assestenti

Elektron pochta: ozotbekbestboy@gmail.com

Annotatsiya: Homiladorlikdagi pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlar timusining morfologik jihatlari bo'yicha asosiy o'zgarishlar timusning po'stloq va mag'iz sohalarida morfologik chalalikni yuzaga kelishi va involyutiv o'zgarishlarni yuzaga kelishi, kortikomedullyar soxadagi retikloepitelial xujayralarning keskin kamayishi, asosan mayda limfotsitlarni ko'payishi, Gassal tanachalarini barcha sohalarida har xil kattalikda bo'lishi, takomil topayotgan Gassal tanachalarida epitelial xujayralar nekrobiozi, postkapillyar venulalarning oddiy qon tomirlarga transformatsiyalanishi, po'stloq va mag'iz qavatida o'pirilgan o'choqlarning bo'lishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: timus, homiladorlikdagi pielonefrit, morfologiya.

Muammoning dolzarbligi: Dunyoda reproduktiv yoshdagi ayollarda homiladorlik davrida rivojlanadigan homiladorlikdagi pielonefrit umumiy ko'rsatkichi, 3-10% ni tashkil etib, asoratlangan homiladorlik 21,7% da uchraydi. Dunyo bo'yicha, yiliga homiladorlikdagi pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlarning o'lim ko'rsatkichi bo'yicha, 13-17 mln chaqaloqlar nobud bo'ladi.

Homiladorlikdagi pielonefrit homiladorlar orasida uchrashi bo'yicha eng ko'p tarqalgan patologiyalar jumlasiga mansub bo'lib, perinatal davrda chaqaloqlar o'limi bo'yicha, 1000 ta homiladorlikdan 21-37 tasida bola tashlash, 16 tasida o'lik tug'ilishi, 27 tasida turli xil homila ichi infeksiyasi sababli postnatal davrda ikkilamchi infeksiyalardan nobud bo'lishiga olib keladi. Pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlarni 28-31% da barcha endokrin a'zolarining morfologik rivojlanishdan orqada qolganligi aniqlanib, jumladan buyrak usti bezining morfologik chalaligi sabali, tug'ma va ortirilgan immunodefitsitni rivojlanishi va chaqaloqlar o'limi ko'rstaichi bo'yicha 1000 ta tug'ruqqa o'rtacha 13-17 tani tashkil etadi.

AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa, Yaponiya, Xitoy va boshqa Osiyo davlatlarida reproduktiv yoshdagi ayollar homiladorlik davriga tayyorgarlik va skrining nazorat ostida bo'lishi yuqori darajada yo'lga qo'yilganligi sababli, 1000 ta homiladorlikdan 6-8 xolatda gestatsion pielonefrit aniqlanadi. Rossiya federatsiyasi



3-TOM, 3 - SON

homiladorlikdagi pielonefritni rivojlanishi bo'yicha, o'lim ko'rsatkichi bo'yicha 1000 ta tug'ruqdan 1-3 holatda letal ko'rsatkichi bilan tugallanadi.

Dunyoda eng kam ko'rsatkich Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlarida aniqlangan. MDX davlatlarida ushbu ko'rsatkich 1000 ta homiladorlikka o'rtacha 67 tani tashkil etib, letal tug'ruqlar 31 tani tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda homiladorlikdagi pielonefrit bilan o'rtacha 2,13 mln ayollar ro'yxatdan o'tgan. Aynan, homiladorlikdagi pielonefrit fonida tug'ilgan va nobud bo'lgan chaqaloqlar buyrak usti bezi to'qimasidagi morfologik o'zgarishlar sababali yuzaga keladigan ikkilamchi o'zgarishlar oqibatida, immunodefitsitlarni turli shakllarining rivojlanishi va yuqori o'lim darajasi bilan harakterlanadi.

Jumladan, homiladorlikdagi pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlar buyrak usti bezining stressor omillarga javob reaksiyasi timus bilan bog'liq integral bog'liqligini izdan chiqishi va homila ichi infeksiyasidan o'lim ko'rsatkichi yuqorligini ko'rstadi. 2022 O'zbekiston Respublikasi SSV ma'lumotlari bo'yicha 64000ta ortiq chaqaloqlar o'limi qayd etilgan. Aksariyat ushbu xolatlar bo'yicha aniqlangan klinik anamnestik ma'lumotlarda homiladorlikdagi infeksiyon va noinfeksiyon somatik kasalliklar sababli rivojlanishi o'rganilgan.

Yuqoridagi epidemiologik ma'lumotlarga asoslanib, ayni tadqiqot ishimiz dolzarbligi va o'z vaqtida tanlanganligini ko'rsatadi. Bu esa, ilmiy tadqiqot ishimizni davlat miqyosida o'ta dolzarb va muximligini, ona bola muxofazasini himoya qilishda eng zaruriy chora tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etib, ayni paytda tadqiqot ishini zaruratini anglatadi.

Tadqiqot maqsadi: Xomiladorlikdagi pielonefrit fonida tug'ilgan va nobud bo'lgan chaqaloqlar timusining morfologik o'zgarishlarni o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: Xomiladorlikdagi pielonefrit fonida tug'ilgan va nobud bo'lgan chaqaloqlar timusining morfologik chalaligi asosan, homila ichi rivojlanishida ona organizmidagi infeksiyon kasalliklar fonida buyrak usti bezining giperplaziyasi sabab timusni hajman kichrayishiga olib kelganligi ma'lum bo'ldi. Bu esa, timus va buyrak usti bezini o'zaro integrativ bog'liqligida buyrak usti bezining giperplaziyasi oqibatida, dominantlik sababli, kortizol gormonini gipeproduksiyasi, timusda morfologik jihatdan limfotsitlarni massiv apoptozini yuzaga kelishini potentsirlashi va timusni po'stloq va mag'iz qavatlarida o'pirilgan o'choqlarni ko'p miqdorda shakllanishi va stromasini yalang'ochlanishi oqibatida, T-limfotsitar immunodefitsitni yuzaga kelganligini tasdiqladi.



3-TOM, 3 - SON

Timusni mag'iz qavati nazorat guruhi bilan o'xshash bo'lib, asosan, och va to'q sitoplazmali xromofob va xromaffin xujayralardan tuzilganligi aniqlanadi. Buyrak usti bezining gipofiz va gipotalamus bilan bevosita bog'liqligi, tashqi va ichki ta'sirlovchi omillar ta'sirida gipotala-gipofizar-suprarenal va simpatoadrenal tizimining doimiy bog'liqligi bilan javob reaksiyalari yuzaga keladi. Aynan, har qanday ta'sirlovchi omillar, infeksiyon va boshqalar ham stress ko'rinishda ta'sirlashi oqibatida, timus po'stloq qavatida, glyukokortikoidlarni gipersekretsiyasi stimullashiga olib keladi.

Xulosa: Homiladorlikdagi pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlar timusida po'stloq va mag'iz qavatlarning chegaralari notekis bo'lishi, katta va kichik limfotsitlarni oraliq muvozanatida asosan mayda limfotsitlarni ko'p miqdorda yetilishi va yirik limfotsitlarni keskin kamayishi, kortikomedullar soxa chegarasini notekis bo'lishi, Gassal tanachalarini xam soxada bir xil uchrashi, qavatning qalinlashganligi, postkapillyar venulalarni oddiy kapillyarlarga transformatsiyasi, stromada juda ko'plab o'pirilgan soxalarni bo'lishi, makrofaglarni timusda ko'payishi bilan namoyon bo'lishi aniqlanadi. Bu o'zgarishlar tug'ma va orttirilgan ko'rinishdagi immunodefitsitni hujayraviy shaklini yuzaga kelganligini anglatib, chaqaloqlarni perinatal davrda ikklamchi immunodefitsitdan nobud bo'lishi bilan tugallanadi. Klinik morfologik jihatdan timus va buyrak usti bezininig o'zaro integral bog'liqligini inobatga olganda, chaqaloqlar qonida kortizol kontsentratsiyasini baland bo'lishi, buyrak usti bezini giperplaziyasi kabi o'zgarishlar bilan namoyon bo'lganligi aniqlanadi.

Bu esa, o'z navbatida kortizol giperproduksiyasi va buyrak usti bezining adaptogen ta'siri kuchayganligi va morfologik adaptatsiya mexanizmlarini ishlaganligini angalatib, timusda aktsidental transformatsiyani yuzaga kelganligini tasdiqlaydi. Natijada, timus buyrak usti bezi giperproduksiyasi sababli, timusning muddatdan oldingi glyukokortikoid assotsiatsiyalashgan involyutsiyasi va chaqaloqlarda antenatal va postnatal davrda turli infeksiyon kasalliklarda sepsis, septisemiya ko'rinishda nobud bo'lishiga olib keladi.

